

TADBIRKORLIK SHAROITIDA YASHIL BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot
Iqtisodiyot va turizm kafedrasida o'qituvchisi, Iqtisodiyot fanlar falsafa doktori
e-mail: qizlarxonrahim@mail.ru, tel: +998903031074*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Yashil biznes – bu atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga oladigan biznes shakli hisoblanadi. Maqolada yashil biznesni yaratishda bozorni tahlil qilish, resurslarni optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik standartlarga rioya qilishning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: yashil biznes, tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiya, resurslarni tejash, Ijtimoiy mas'uliyat, ekologik standartlar.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Global miqyosda sanoatlashuv, urbanizatsiya, aholining o'sishi, energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi va ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi tabiiy muhitga bosimni kuchaytirmoqda. Natijada iqtisodiy o'sishning an'anaviy modeli, ya'ni resurslarni ko'p sarflash, chiqindilarni ko'paytirish va ekologik zararlarni yetarli darajada hisobga olmaslikka asoslangan yondashuv o'zining cheklanganligini ko'rsatmoqda. Shu sababli bugungi kunda ko'plab mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan “yashil” iqtisodiyot modeliga o'tishga intilmoqda.

Yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ekologik xavfsizlik, resurslar samaradorligi, ijtimoiy farovonlik va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda iqtisodiy faoliyat faqat daromad, ishlab chiqarish hajmi yoki foyda ko'rsatkichlari bilan emas, balki uning atrof-muhitga ta'siri, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, iqlim o'zgarishiga moslashuvchanligi va jamiyat manfaatlariga qo'shadigan hissasi bilan ham baholanadi. Shu jihatdan yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik siyosatning tarkibiy qismi, balki iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishning muhim omili sifatida qaraladi.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari ham barqaror rivojlanish, atrof-

muhitni muhofaza qilish, suv resurslarini boshqarish va iqlim o'zgarishiga moslashish masalalarini turli darajalarda hal qilib kelmoqdalar. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo yangi hamkorlik strategiyasi doirasida atrof-muhit, suv va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalar hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanishi ushbu sohaning mintaqaviy va xalqaro ahamiyatini yanada oshirmoqda. Markaziy Osiyo uchun bu masalalar alohida muhimdir, chunki mintaqa suv resurslari cheklanganligi, cho'llanish xavfi, qishloq xo'jaligining tabiiy omillarga yuqori darajada bog'liqligi, energetika tizimining transformatsiya zarurati va ekologik muammolarning transchegaraviy xususiyati bilan ajralib turadi.

O'zbekiston uchun ham yashil iqtisodiyotga o'tish strategik ahamiyatga ega. Mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, aholi bandligini ta'minlash, sanoatni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik talab, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning ham muhim sharti hisoblanadi.

Operatsion darajada yashil iqtisodiyot emissiyalar va ifloslanishni kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda ekotizim xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatning asosiy yo'nalishlariga investitsiya kiritish orqali daromad va bandlikni oshirish manbai sifatida qaraladi. Bunda ekologik toza texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalari, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejovchi texnologiyalar, organik qishloq xo'jaligi, yashil transport, ekologik qurilish va qayta tiklanuvchi energetika kabi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar bir vaqtning o'zida iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy foyda yaratishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotni oldingi iqtisodiy rivojlanish modellaridan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan biri tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy qiymatga ega resurs sifatida bevosita baholashdir. An'anaviy iqtisodiy yondashuvlarda tabiat ko'pincha cheksiz va bepul resurs sifatida talqin qilingan bo'lsa, yashil iqtisodiyotda tabiiy kapital iqtisodiy aktiv sifatida qaraladi. Tabiiy kapitalga yer, suv, havo, o'rmonlar, biologik xilma-xillik, foydali qazilmalar va ekotizimlar kiradi. Ekotizim xizmatlari esa inson hayoti va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi tabiiy jarayonlar, jumladan, suvni tozalash, havoni yangilash, tuproq unumdorligini saqlash, iqlimni tartibga solish va biologik muvozanatni ta'minlash kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyotning muhim nazariy jihati shundaki, u iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ekologik zararlarni tashqi omil sifatida e'tibordan chetda qoldirmaydi. Aksincha, atrof-muhitga yetkazilgan zarar, tabiiy resurslarning kamayishi, ifloslanish, chiqindilar va ekotizimlarga salbiy ta'sirlar iqtisodiy xarajat sifatida baholanishi lozim. Bu yondashuv “to'liq xarajatlarni hisobga olish” tamoyiliga

asoslanadi. Ya’ni mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida jamiyat va tabiat zimmasiga yuklanadigan yashirin ekologik xarajatlar ham iqtisodiy hisob-kitoblarga kiritilishi kerak. Bunday yondashuv korxonalar va tashkilotlarni ekologik javobgarlikni kuchaytirishga, resurslardan tejamkor foydalanishga va zararli ta’sirlarni kamaytirishga undaydi.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotda “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyilga ko‘ra, atrof-muhitga zarar yetkazgan yoki tabiiy kapitalni e’tiborsiz qoldirgan subyekt ushbu zarar uchun iqtisodiy va huquqiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi kerak. Natijada ekologik zarar jamiyat yoki davlat zimmasida qolib ketmasdan, uni yuzaga keltirgan tashkilotning majburiyati sifatida hisobga olinadi. Bu esa korxonalarda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish, toza texnologiyalarga investitsiya kiritish va barqaror ishlab chiqarish usullariga o‘tish uchun rag‘bat yaratadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiy o‘rish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish zarurati bilan belgilanadi. Bugungi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish uchun an’anaviy investitsiya manbalari bilan bir qatorda ekologik yo‘naltirilgan moliyaviy mexanizmlar, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, xalqaro grantlar, iqlim fondlari va xususiy sektor investitsiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday moliyaviy vositalar iqtisodiyotning ekologik toza, resurs tejamkor va innovatsion yo‘nalishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisodiyot va “yashil” biznesni rivojlantirish masalalari bugungi kunda xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslardan foydalanish bosimining ortishi, ekologik muammolarning chuqurlashuvi va ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta’siri iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil” biznes iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va innovatsion rivojlanishni uyg‘unlashtiruvchi tadbirkorlik modeli sifatida qaraladi.

“Yashil” biznes va uning o‘ziga xos xususiyatlari, uni tashkil etish hamda rivojlantirish masalalari bo‘yicha xorijlik olimlar Crane A., Matten D., Chouinard Y., Ellison J., Ridgeway R., D’Amato A., Roome N., Ottman J.A., Cataldo A.L., Burgstaller D., Anthony S.F., Chiu Geng Yong, Brian Boyd va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida korporativ ijtimoiy mas’uliyat, ekologik menejment, barqaror biznes modellari, yashil marketing, ekologik innovatsiyalar va resurslardan oqilona foydalanish masalalari keng yoritilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda “yashil” biznesning asosiy yo‘nalishlari sifatida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, yashil logistika, ekologik sertifikatlash va barqaror ta’minot zanjirlarini shakllantirish

masalalari ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqotlar “yashil” biznesni faqat ekologik faoliyat emas, balki raqobatbardoshlikni oshirish, yangi bozorlarni shakllantirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish vositasi sifatida baholaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan Onishenko M.V., Mateos R.A., T.Volery, Vyatkina Yu., Arbuzova T.N., Ananenkov A.G., Bronshteyn A.M., Gofman K.G., Gomboev B.O., Zalesskiy L.B. va boshqalar “yashil” biznesni tashkil etish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy muammolarini tadqiq qilganlar. Ularning ilmiy ishlarida ekologik tadbirkorlik, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, mintaqaviy iqtisodiyotda yashil o‘sish, ekologik investitsiyalar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan.

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, kichik biznesni rivojlantirish, ekologik xavfsizlik va barqaror iqtisodiy o‘sish masalalari M.Bo‘tabaev, T.Iminov, O.Umarov, A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.A.Toshmatov, A.Gafarov, B.Ataniyazov, A.E.Ishmuxamedov, S.G‘ulomov, I.Qayumova, T.Shodiev, Yu.Muhammedov, N.M.Mahmudov, B.Xodiev, R.Kulmatov, U.Djanibekova, U.P.Umurzakov, A.J.Toshboev va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, resurslardan tejamkor foydalanish, investitsiyalarni jalb etish, ekologik barqarorlik va ayrim tarmoqlarni rivojlantirish masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Mazkur olimlar tomonidan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, kichik biznesni rivojlantirish va ipakchilik tarmog‘ini tashkil etish bilan bog‘liq ayrim masalalar o‘rganilgan bo‘lsa-da, ipakchilikka ixtisoslashgan “yashil” biznesni shakllantirish va rivojlantirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, ipakchilikda ekologik toza ishlab chiqarish, tabiiy xomashyodan samarali foydalanish, kam chiqindili texnologiyalarni qo‘llash, qishloq hududlarida yashil ish o‘rinlarini yaratish va kichik biznes subyektlarini ushbu yo‘nalishga jalb etish masalalari alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Ipakchilik tarmog‘i “yashil” biznes nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega, chunki u tabiiy xomashyo, qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash, hunarmandchilik, yengil sanoat va eksport faoliyatini o‘zaro bog‘laydi. Ushbu tarmoqda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish, mahalliy aholi bandligini ta‘minlash, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyatlari mavjud. Shu sababli ipakchilikka ixtisoslashgan “yashil” biznes modelini ishlab chiqish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni ta‘minlashda muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlilida transport, sanoat, energetika va qishloq xo‘jaligi sohalarining ekologik ta‘siri ham alohida o‘rin egallaydi. Xususan, yer transporti atmosferaga karbonat angidrid va boshqa zararli gazlar chiqaruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda transportni elektrlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, yashil logistika va ekologik standartlarni kuchaytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu tajribalar

O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yashil texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar “yashil” biznesni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ipakchilikka ixtisoslashgan kichik “yashil” biznesni tashkil etish, uning ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqda yashil texnologiyalarni joriy etish va hududiy bandlikka ta‘sirini aniqlash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Yer transporti dunyoda CO₂ gazlarining atmosferaga eng ko‘p chiqaradi buning oqibatida iqlim isib ketadi. Rivojlangan davlatlarda parnik gazlarining atmosferaga chiqarilishi juda tez ko‘payib bormoqda. 2020 yili 25% bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 30-35 % gacha, 2030 yilga kelib 80 % gacha bo‘ladiyu shaxsiy avtomobillardan CO₂ gazini atmosferaga chiqarishni 1/4 qismigacha (25/75) bo‘lmoqda (chiqarilmoqda). Shuning uchun yerdagi avtomobillarni elektrlashtirishni amalga oshirilmoqda. Masalan, Shvesiyada avtotransportdan chiqayotgan CO₂ gazini chiqishi normadan ham pastdir. Dunyoda CO₂ gazini emissiyasi asosan sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi transporti va umumiy ovqatlanish shahobchalari hisoblanadi.

Mashinalar tirbandligi natijasida YalMni 1% yo‘qotilmoqda, bu holat transportni yo‘lda qolib ketishi, yoki kechikib kelishi, ish vaqtini yo‘qotilishi oqibatida yuz bermoqda. Ekologiyaga, ekosistemaga inson faoliyatining ta‘sirini baholashda “uglerod isi” degan tushunchadan foydalaniladi.

“Uglerod isi” global tushuncha bo‘lib, insonlar tomonidan, tashkilotlar, kompaniyalar, biznes tashkilotlar atmosferaga chiqarilayotgan hamma issiqxona gazlarining yig‘indisiga aytiladi. CO₂ uglerod gazi (200 turdan ortiq) bo‘lib, sayyoramizda bir yil davomida 55 milliard tonna (O‘zbekistonda 320 million tonna) bo‘lib, uning ta‘sirida har yili 15 milliard tonna kislorod yo‘qotilmoqda, atrof muhit ifloslanmoqda, bioxilma-xillik yo‘qolib borayapti, hayvonot olamining tarkibiy tuzilishi o‘zgarimoqda, iqlim o‘zgarib global isish yuz bermoqda, tuproqda tabiiy unumdorligi qashshoqlashib borayapti, ichimlik suvi kamayib bormoqda, hosildorlik kamayib mahsulot va xizmatlar qimmatlashib boryapti, natijada tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat buzilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sayyoramizda keyingi 150 yil ichida, tabiatda, iqlimda atrof muhitdagi o‘zgarishlarga inson sababchi, demak hamma sababchidir. CO₂ emissiyasini normallashtirish uchun global yalpi ichki mahsulotidan 5% ini sarflash rejalashtirilmoqda. Yashil makon umumxalq xarakati boshlanganligi toza havо manbaining ko‘payishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu buyuk harakatga har qancha to‘xtalib yuzlab bet asoslangan fikrlar aytish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda aholi sog‘lig‘ini mustahkamlab, farovonlikni yanada rivojlantiradi. Shahar va qishloqlarda go‘zal manzara barpo qiladi.

Bugungi kunda jahon mamalakatlari iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning

kamayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi ekologik muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarga muqobil yechim sifatida barqarorlikka ustuvor ahamiyat kasb etadigan, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan va adolatli rivojlanishga zamin yaratuvchi "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurati yildan-yilga kuchayib bormoqda. O'zbekiston ham o'zining umumiy iqtisodiy rejalashtirishiga barqaror amaliyotni kiritish borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Mamlakat o'zining iqtisodiy transformatsiyasini «yashil» yondashuv bilan rivojlantirish zarurligini, yanada barqaror iqtisodiy modelni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. "Yashil" biznes iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan muhimligining bir necha asosiy sabablari mavjud bo'lib, moliyaviy jihatdan korxonalarni samaradorligini oshiradi va chiqindilarni kamaytirish orqali xarajatlarni tejashga erishiladi²⁶. Atrof-muhit nuqtai nazaridan «yashil» korxonalar ifloslanishni kamaytirish va tabiiy resurslarni saqlashga hissa qo'shadi²⁷. Ijtimoiy jihatdan ular korporativ obro'ni oshiradi va iste'molchilar ishonchini mustahkamlaydi, bu esa bozor ulushini oshirishga olib keladi²⁸.

Darhaqiqat, «yashil» biznes, xarajatlarni tejashga, bozor imkoniyatlarini oshirishga, innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni ta'minlashga, me'yoriy hujjatlarga amalga qilishga va investitsiyalarni faol jalb etishga imkon beradi. "Yashil iqtisodiyotga o'tishda "yashil" biznes ta'sirini tahlil etadigan bo'lsak, ko'mir, gaz, neft sanoat korxonalarida, issiqxonalaridan atmosferaga chiqayotgan is gazi uglerod oksi CO, zaharli, rangsiz, hidsiz gazni neytrallashtirish maqsadida tabiiy qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanib aholining sanoat va qishloq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "yashil" moliyalashni amalga oshiradi²⁹ (1-jadval).

1-jadval

Yashil iqtisodiyotga o'tishda "yashil" biznes ta'siri³⁰

"Yashil" iqtisodiyot	"Yashil" biznes
Ko'mir, gaz, neft sanoat korxonalarida, issiqxonalaridan atmosferaga chiqayotgan is gazi uglerod oksi CO, zaharli, rangsiz, hidsiz gazni neytrallashtirish maqsadida tabiiy qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanib aholining sanoat va qishloq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "yashil" moliyalashni amalga oshiradi. Suv kuchi, quyosh yorug'ligi, energiyaga shamol tezligidan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish, quyosh panellaridan foydalanish iqtisodiyotni, uy xo'jaliklarining energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Atrof-muhit. ichimlik suvlarining	Iqtisodiyot, ekologiya va jamiyat o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yaratish, jamiyatda ekologik toza tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqish va sotish. Qishloq xo'jaligida organik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini eko, bio standartlarga moslash, eko restoran va magazinlarni ishga tushirish, ekoturizmni tashkil qilish, ekologik toza mahsulotlar, xizmatlarni, ishlab chiqarilayotgan tarmoq va sohalarni soliq yukidan ozod qilish, imtiyozli chiqindilarni qayta kreditlash, ishlovchi minizavodlarni olib kirgan O'zbekistonga

²⁶Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97-118.

²⁷ Esty, D. C., & Winston, A. S. (2006). *Green to gold: How smart companies use environmental strategy to innovate, create value, and build competitive advantage*. Yale University Press.

²⁸Darnall, N., Henriques, I., & Sadorsky, P. (2008). Do environmental management systems improve business performance in an international setting? *Journal of International Management*, 14(4), 364-376.

²⁹*Yashil iqtisodiyot. Vaxabov A.V, Xajibakiev Sh. X. Universitet. Nashr yili: 2020*

³⁰Muallif ishlanmasi.

ifloslanishini oldini olish, chiqindilarni qayta ishlash, ularni yoqib, biogaz, materiallar olish, iqtisodiyot va ekologiya o'rtasida muvozanat o'rnatish, iqlim o'zgarishini boshqarish, tabiiy kapitalni boyitish, bio xilma-xillikni saqlab qolishni amalga oshiradi.	tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ichimlik filtrlovchi suvini tozalovchi, apparatlarni ko'paytirishni amalga oshirish.
--	---

Yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirish zamonaviy tadbirkorlikda yangi imkoniyatlarni yaratadi. U nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki atrof-muhitni saqlash va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlaydi. Yashil biznesning muvaffaqiyati innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslarni tejash va mijozlar bilan samarali muloqotga bog'liq. Shu bilan birga, davlat va xalqaro ekologik standartlarga rioya qilish biznesning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydi.

XULOSA

1. Mamlakatimiz sharoitida ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish uchun barcha tabiiy sharoitlar mavjud. Bunday sifatli mahsulotlar eksporti hajmini keskin oshirish zaruratini inobatga olib, bu boradagi qonun, qonunosti hujjatlari, standartlash, markirovka masalalarini hal etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. Tadqiqotlar davomida mamlakatimizda qaysi “Yashil” mahsulotlarga talab yuqori, degan savolga respondentlarning 16,2 foizi tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari, 15,0 foizi «yashil» texnologiyalar, 13,7 foizi ishlab chiqarishda atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar, 10,8 foizi to'qimachilik mahsulotlari, 10,3 foizi tabiiy materialdan tayyorlangan mahsulotlarga, deya javob bergan.

3. Tahlillariga ko'ra, ipakchilik tarmog'idagi daromadning asosiy qismini xomashyo yetishtiruvchilar emas, balki tayyor mahsulot ishlab chiqarganlar oladi. Chunki, jahon bozorida bir kilogramm ipakning bahosi 38-40 AQSh dollariga teng. Agar u kalava qilinsa, narxi 55 dollargacha ortadi. Undan mato to'qib, kiyim-kechak tikib sotilsa, daromad 3 barobar ko'payadi. Vaholanki, ipak kalavasining har bir kilogrammidan 11 metrgacha mato to'qiladi. Keyingi paytda ipakdan gilam to'qishga talab ortib boryapti. Masalan, bitta gilam to'qish uchun o'rtacha 10 kilogramm ipak kalavasi kerak. Shu hisobda, ipak ip uchun 500-600 dollar atrofida mablag' sarflanadi. Gilam tayyor bo'lgach, uning bahosi 10 marotaba oshib ketadi.

4. Tahlillardan shuni ko'rish mumkinki, "Nurli tong silk" MChJi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga emas, balki “Yashil” mahsulot ishlab chiqarishga intilayotganligi, bunda mahsulot hajmiga emas mahsulotning milliy va xalqaro standart talablariga javob berishiga, sifatiga, xavfsizligiga va brendi, nufuziga e'tibor qaratmoqda. Buni ushbu raqamlardan ham ko'rish mumkin. Korxonaning mahsulotlardan sotishdan sof tushumi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 6.8%ga kamaygan bo'lsada, mahsulot tannarxini 20%ga kamaytirishi hisobiga sof foyda 44.7%ga oshgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son, www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3 maydagi “Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-72-son farmoni.
4. Rakhimova, K. Socio-economic necessity of increasing the importance of green business. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 2022, 034-1037.
5. Raximova Kizlarxon Ne`matjon qizi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari iqtisodiy rivojlanishi va yuksalish omillari. “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida real sector korxonalarini baholash”. 3 bet, 2016-yil.
6. Raximova Kizlarxon Ne`matjon qizi. Global axborot xavfsizligi muommolari va uning salbiy oqibatlarini. “Axborot xuruji davrida yoshlar ongini shakllantirish omillari”. 3 bet, 2013-yil.
7. Raxmonov B.A. Investitsiya va innovatsiyalar. Toshkent: Iqtisodiyot. 2017
8. Rosenbaum M., & Pearl J. *Causality: Models, Reasoning, and Inference* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 2009
9. Rustamov D. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish usullari. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. 19 th January, 2023*, Website: econferenceseries.com
10. Samuelson P.A., & Nordhaus W.D. *Economics* (19th ed.). New York: McGraw-Hill. 2010